



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **TARIXIY ASARLARDA MALIKALAR MA'RIFAT TIMSOLI SIFATIDA**

**Usmanova Sevvara Sultanovna**

Farg'ona davlat universiteti, dotsent (DSc)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola o'zbek adabiyotining tarixiy roman janrida temuriy malikalar, xususan Gavharshodbegim va Xonzodabegim obrazlarining turli mualliflar tomonidan talqin qilinishini qiyosiy-tahliliy asosda o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" (keyinchalik "Shohruh va Gavharshod"), Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek fojiasi" hamda Shahodat Isaxonovanning "Gavharshodbegim" asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bir xil tarixiy shaxslar turli yozuvchilar tomonidan turlicha – ba'zan qarama-qarshi – badiiy talqin etiladi, bu esa tarixiy romanlarda obyektivlik va muallif metodologiyasi masalasini dolzarb etadi. Shuningdek, maqolada roman janrining hayotni aks ettirish imkoniyatlari Sharq va G'arb adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarixiy kolorit, tarixiy roman, temuriy malikalar, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, badiiy talqin, qiyosiy adabiyotshunoslik, roman janri, dramaturgiya, ma'naviy obraz.

## **КОРОЛЕВЫ КАК СИМВОЛ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ**

**Усманова Севара Султановна**

Ферганский государственный университет, доцент (DSc)

### **Аннотация**

Данная статья посвящена сравнительно-аналитическому исследованию интерпретации образов тимуридских цариц, в частности Гавхаршодбегим и Ханзодабегим, в жанре исторического романа узбекской литературы. В работе анализируются произведения Пиримкула Кадырова «Прощание соколицы» (позднее «Шахрух и Гавхаршод»), Одила Ёкубова «Сокровища Улугбека», Максуда Шайхзоды «Трагедия Мирзо Улугбека» и Шахадат Исахановой «Гавхаршодбегим». Результаты показывают, что один и тот же исторический персонаж может быть представлен различными авторами по-разному, вплоть до противоположных интерпретаций, что делает актуальной проблему объективности и авторской методологии в историческом романе. Также рассматриваются возможности жанра романа в отражении действительности с позиций западной и восточной литературной теории.

**Ключевые слова:** исторический колорит, исторический роман, тимуридские царицы, Гавхаршодбегим, Ханзодабегим, художественная интерпретация, сравнительное литературоведение, жанр романа, драматургия, духовный образ.

## **QUEENS AS A SYMBOL OF ENLIGHTENMENT IN HISTORICAL WORKS**

**Usmanova Sevvara Sultanovna**

Fergana State University, Associate Professor (DSc)

### **Abstract**

This article is devoted to a comparative analysis of the interpretation of Timurid queens, particularly Gavharshodbegim and Khonzodabegim, in the genre of historical novels in Uzbek

literature. The study examines works such as Pirimqul Qodirov's "Farewell of the Falcon" (later republished as "Shohruh and Gavharshod"), Odil Yoqubov's "Ulugbek's Treasure," Maqsud Shaykhzoda's "The Tragedy of Mirzo Ulugbek," and Shahodat Isakhanova's "Gavharshodbegim." The findings indicate that the same historical figures can be portrayed differently—even in contradictory ways—by different authors, highlighting the issue of objectivity and authorial methodology in historical fiction. The article also discusses the potential of the novel genre in representing reality from both Western and Eastern literary perspectives.

**Keywords:** historical color, historical novel, Timurid queens, Gavharshodbegim, Khonzodabegim, artistic interpretation, comparative literature, novel genre, dramaturgy, spiritual image.

Tarixiy mavzularga ko'plab ijodkorlar murojaat qilganlar. Xususan, temuriy shahzodalar va malikalar haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Boburning hayoti va ijodi, uning oilasi haqidagi romanlar, birinchi o'zbek oyimi Gavharshodbegim haqidagi asarlar o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Biroq bu asarlarning barchasida bir xil yagona talqin mavjud emas — ayni bir tarixiy shaxs turli yozuvchilar tomonidan turlicha baholangan.

Tarixiy romanlar mazmun jihatdan ham, ma'noni jihatdan ham rang-barang uslubga asoslanadi. Shuning uchun ham, boshqa nasriy asarlardan farqli o'laroq, tarixiy mavzuda roman yozish o'ta murakkab va qiyin ijodiy ish hisoblanadi. Zero, ijodiy uslub yozuvchining tanlagan mavzusida aks etgan hayotga munosabati bilan o'lchanadi [1]. Fransuz adibi Emil Avgust Alenning "Nafis san'atlar silsilasida" asarida aytilishicha: "Eng go'zal tarixiy asarga ham jism-go'sht yetishmaydi, u hamisha anchayin mavhum bo'ladi. Epik asarda esa jonli fikr harakat qilgani uchun o'ziga yarasha ishonchlik va hayotiylik bor" [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — o'zbek tarixiy romanlarida temuriy malikalar, xususan, Gavharshodbegim obrazining turli yozuvchilar tomonidan qanday talqin etilganini qiyosiy-tahliliy usulda o'rganish, obraz yaratishdagi metodologik farqlarni aniqlash hamda tarixiy roman janrining obyektivlik va badiiylik muammosini ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, adabiyotshunoslikda ayni bir tarixiy shaxs obrazlarining turlicha talqin qilinishi masalasi yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Birinchi o'zbek oyimi Gavharshodbegim haqidagi asarlar misolida bu muammoni yoritish o'zbek adabiyoti metodologiyasi uchun muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Roman janri nazariyasi bo'yicha G'arb va Sharq mutafakkirlari qator muhim fikrlar bildirgan. V.G. Belinskiyning "Poeziyaning jins va turlarga bo'linishi" asarida ingliz shoiri va tarixiy romanlar muallifi Valter Skott romanlari haqida shunday deyiladi: "Epepeya qahramoni inson emas, balki hayotning o'zidir" [3]. Munaqqidning bu fikri tarixiy romanlarga bevosita taalluqli bo'lib, tarixiy yoki to'qima voqealar inson fe'l-atvoridan, ruhiy olamidan kelib chiqishini asoslaydi.

Gegelning roman haqidagi mulohazasi ham bu muammo uchun muhim kontekst yaratadi: epos qadimgi davrda qanday qudratga ega bo'lgan bo'lsa, roman ham hozirgi davrda ana shunday kuchga ega bo'lishi kerak. Fransuz romanchilaridan Balzak, Dikens, Flober, Stendal o'z asarlari — "Qizil va qora" [5], "Madam Bovari" [6], "Hayot" va "Azizim" [7] — orqali roman janrida badiiyatning yangi dunyosini yaratdilar. Bu asarlar o'z hajmiga ko'ra uncha katta bo'lmasa-da, mazmuni hayratlanarli darajada kengdir.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan hayotni aks ettirishdagi eng katta imkoniyatlar roman janri doirasida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, roman qahramonlari barcha kasb-kordagi kitobxonlarni qiziqitira olishi zarur. Stendalning "Qizil va qora", Floberning "Madam Bovari", Mopassanning "Hayot" romanlari roman shaklining takomillashish jarayonida mundarijaviy yaxlitlikni ta'minlash orqali o'ziga xos uslub vujudga kelganini namoyish etadi.

#### O'zbek adabiyotida tarixiy roman va temuriy malikalar obrazi

O'zbek adabiyotida Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanidagi Gavharshodbegim obrazi ma'naviy yetuk ayol, mehribon va jonkuyar ona, suyukli rafiqqa, aqlli, shijoatli va dono momo sifatida gavalantirilgan [8]. Keyinchalik bu asar "Shohruh va Gavharshod" nomi bilan qayta nashr etildi. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubovdan farqli o'laroq, Gavharshodbegim obraziga bir tomonlama yondashmasdan, uning yaxshi fazilatlarini ham kitobxonga ko'rsatib beradi.

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida ham Gavharshodbegim obrazi mavjud, biroq bu obrazga bir tomonlama yondashilgan: Yoqubov Gavharshodbegimni Abdulatifning yovuzligi sababchisi, davlatga kelayotgan xavf-xatarlar manbai, shahzodalar o'rtasiga nizo urug'ini sochuvchi obraz sifatida tasvirlaydi [9]. Bu talqin Qodirovning yondashuvidan tubdan farq qiladi.

Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ma'lum sabablarga ko'ra Gavharshodbegim obrazi bir oz biryoqlama, o'ta mutaassib ayol tarzida talqin etilgan; unda oqqadar Abdullatifga moyil, buyuk olim Ulug'bekka zid qo'yilgan [10]. Romanda esa bu tarixiy siymoning asl qiyofasi ochiladi: u ko'pni ko'rgan donishmand, tadbirkor, shijoatkor kayvoni onaxon sifatida gavalanadi.

Yozuvchi Muhammad Ali o'zining "Ulug' saltanat" nomli to'rt kitobdan iborat tarixiy romanlari silsilasining so'nggi, yakunlovchi asarini "Shohruh Mirzo" nomi bilan e'lon qildirdi [11]. Tarixchi va yozuvchi Poyon Ravshanovning "Zavol" nomli qissasida ham Gavharshodbegimga bag'ishlangan alohida sahifalar ajratilgan [12]. Adiba Shahodat Isaxonova esa avvalgi nashrlardan farqli uslubda "Gavharshodbegim" tarixiy romanini yaratdi [13].

Shu o'rinda sanab o'tilgan Gavharshodbegimga bag'ishlangan tarixiy roman va qissalarda ko'pgina voqealar va obrazlar tasvirlanadi. Biroq ular o'zaro bir markazga birlashib, mavzuning bosh va asosiy g'oyasini to'liq ochib bera olmaslik muammosi mavjud.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

- **Qiyosiy-tipologik tahlil:** ayni bir tarixiy shaxs — Gavharshodbegim obrazi turli yozuvchilar [8], [9], [10], [13] asarlarida qanday talqin etilganligi tizimli qiyoslangan.
- **Matn tahlili usuli:** har bir asardagi Gavharshodbegim obrazining portret xususiyatlari, psixologik talqini va syujet vazifasi batafsil tahlil qilingan.
- **Adabiy-nazariy yondashuv:** roman janri nazariyasi bo'yicha G'arb va Sharq mutafakkirlari — Belinskiy, Gegel, Karimov E. va Mirzayev mulohazalari asosida tahliliy mezon ishlab chiqilgan.
- **Tarixiy-kontekstual usul:** asarlardagi badiiy talqin tarixiy manbalar — Abdurazzoq Samarqandiy [14], Ahmedov [15], Klavixov [16] — bilan qiyoslanib, badiiy erkinlik va tarixiy haqiqat o'rtasidagi muvozanat baholangan.

Tadqiqotda o'zbek adabiyotshunosligining metodologik an'analari Saydullo Mirzayev ta'limotlari asosida, G'arb adabiyot nazariyasi esa Belinskiy va Karimov E. asarlari orqali uyg'unlashtirildi.

### **Gavharshodbegim obrazining qiyosiy tahlili**

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Gavharshodbegim obrazi o'zbek adabiyotida ikki qarama-qarshi qutbda tasvirlanadi. Pirimqul Qodirov bu obrazga ko'p qirrali, insoniy yondashuv orqali uni suyukli kelin, vafodor yor, mehribon ona sifatida tasvirlab, o'zbek ayoli, o'zbek onasiga xos barcha ezgu xislatlarni uning siymosida mujassamlashtiradi. Yozuvchining mahorati aynan shunda ko'rinadi — u Xonzodabegim va boshqa temuriy malikalarning ham yaxshi tomonlarini ko'rsatib, ularning ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar ekanini ochib berishga harakat qiladi.

Bunda Odil Yoqubov tamomila boshqa yondashuv tutadi: u Gavharshodbegimni Abdulatifning yovuzligi sababchisi, davlatga xavf soladigan tahdid manbai sifatida ko'rsatadi. Shayxzodaning dramatik talqini ham malikani Ulug'bekka zid qo'yib, uni mutaassib qiyofada tasvirlaydi. Bu farqni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muhokama qilgan Mirzayev "Romanda tasvirning haqqoniyligi, xolisligi, voqeabandligi va ko'lamdorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi hayot haqiqatini chuqur tahlil etib, muhim umumlashmalar kashf etishi,

xilma-xil jonli va tabiiy obrazlar yaratishi shart”, deb ta’kidlaydi.

Tarixiy manbalar — Abdurazzoq Samarqandiy va Klavixo — Gavharshodbegimni o‘z davridagi muhim tarixiy shaxs sifatida tasvirlaydi va Qodirovning talqiniga yaqinroq turadi. Ahmedov ham bu malikani Ulug‘bekning taqdirida muhim rol o‘ynagan insonparvar siymo sifatida baholaydi.

### **Tarixiy roman janrining imkoniyatlari va cheklovlari**

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, tarixiy roman janri o‘z mohiyatiga ko‘ra yozuvchiga ma’lum badiiy erkinlik beradi, ammo bu erkinlik tarixiy haqiqatni buzmasligi lozim. Belinskiy ta’kidlaganidek, tarixiy voqealar inson fe‘l-atvoridan, ruhiy olamidan kelib chiqadi — demak, qahramon ruhiyatini chuqur tahlil qilish tarixiy asarning asosiy mezonidir. Flober o‘zining “Madam Bovari” romanida bosh qahramon ayolning kechinmalarini asosiy o‘ringa qo‘yib, inson ruhiy dunyosini yetakchi qilib ko‘rsatgan — bu tamoyil temuriy malikalar haqidagi romanlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Shuni ham eslash lozimki, yozuvchi tarixiy shaxsni, aniqrog‘i, temuriy malikalardan birini bosh qahramon qilib olganida ham romanda ularning kundalik hayot tarzini tasvir markaziga olish uchun alohida uslubiy mahorat talab qilinadi. Saroy ichkarisida makon tutgan malikalarning hayoti, fazilatlarini ko‘pchilik kitobxonlarga to‘liq tanish emas — bu esa yozuvchi oldiga qo‘shimcha mas’uliyat qo‘yadi.

### **Yozuvchi metodologiyasi va obyektivlik muammosi**

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Isaxonova o‘zining “Gavharshodbegim” romanida avvalgi asarlardan farqli uslubiy yondashuv tanlab, malikaning to‘liqroq, ko‘p qirrali obrazini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Bu yondashuv roman janrining dolzarb talablariga — mazmun va makon jihatdan rang-baranglikka, yaxlit g‘oyaviy markazga — javob beradi. Muhammad Ali va Ravshanov asarlarida ham Gavharshodbegim obraziga murojaat qilingan, biroq bu asarlar malikaning to‘liq, yaxlit obrazini yaratishdan ko‘ra keng epik voqealar tasvirining bir qismi sifatida unga o‘rin ajratgan.

Umuman olganda, ayni bir tarixiy shaxs haqida diametral qarama-qarshi badiiy talqinlarning mavjudligi tarixiy roman janrida metodologik muammo sifatida e’tiborni tortadi. Yozuvchi har qanday holatda ham tanlangan uslubni, romanning oldiga qo‘ygan maqsadini va yuqori sifat masalasini hal qilishda bir-biriga uyg‘un saqlashi lozim.

### **MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalari tarixiy roman janrida badiiy talqin va metodologik obyektivlik muammosini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi. Gavharshodbegim obrazining ikki qarama-qarshi talqini — Qodirovning ko‘p qirrali humanistik yondashuvi va Yoqubov hamda Shayxzoda asarlaridagi bir tomonlama tasvirlash — har bir yozuvchining ijodiy pozitsiyasi, davr mafkurasi va badiiy maqsadlari bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Bu holat o‘zbek tarixiy romani uchun xos bo‘lgan murakkab muammoni yuzaga keltiradi: qaysi talqin kitobxonni haqiqiy tarixiy ma’rifat sari yetaklay oladi?

Belinskiy va Hegel qo‘ygan mezonlar nuqtayi nazaridan qaraganda, tarixiy roman qahramoni shunchaki tarixiy fakt darajasida qolmasligi, balki universal insoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etishi zarur. Ushbu talabga ko‘ra, Qodirovning yondashuvi ancha kuchlidir: Gavharshodbegimni faqat o‘z davrining siyosiy xarakteri sifatida emas, balki universal ona va oqila ayol sifatida tasvirlash — bu yondashuv kitobxonda malikaga chuqur empatiya hosil qiladi. Qiyosiy adabiyotshunoslikda ham parallel hodisalar kuzatiladi: masalan, Flober va Stendal asarlarida ayol qahramon psixologiyasining ko‘p qirrali tasvirlanishi romanlarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy omilga aylangan.

Tarixiy manbalar bilan badiiy talqinni qiyoslaganda muhim bir metodologik muammo yuzaga chiqadi: yozuvchining “badiiy erkinligi” qaysi nuqtadan tarixiy buzilish bo‘lib ketadi? Klavixo va Abdurazzoq Samarqandiy manbalari Gavharshodbegimni o‘z davridagi nufuzli va insonparvar siymo sifatida tasvirlaydi. Bu manbalar Yoqubov va Shayxzoda tomonidan yaratilgan

salbiy talqinga aniq tarixiy dalil sifatida qarshi turadi. Mirzayev o'z adabiyotshunoslik tadqiqotlarida "tarixiy asarda obyektivlik — birinchi shart" degan qoidani ilgari surganida, aynan shu ziddiyatni nazarda tutgan bo'lishi mumkin.

Isaxonovanning yondashuvi bu munozarada alohida o'rin tutadi. U avvalgi talqinlardagi kamchiliklardan xabardor bo'lgan holda, arxiv manbalari va psixologik ishonchlikka tayanib, yanada to'liqroq obraz yaratishga intiladi. Bu yondashuv Karimov ta'kidlagan roman janri talablariga — "hayot haqiqatini ko'p qirrali va mazmunli tarzda ifodalash" — ko'proq mos keladi. Shu ma'noda, Isaxonovanning asari metodologik jihatdan avvalgi barcha yondashuvlarning tanqidiy sintezi deb baholanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy kontekst ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Yoqubov va Shayxzoda asarlari sovet davri adabiy siyosati ta'sirida yaratilgan bo'lib, unda ayrim tarixiy shaxslarga munosabat mafkuraviy zaruratdan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur asarlardagi bir tomonlama talqinni to'liq subyektiv xato deb baholamaslik kerakligini bildiradi — ular o'z davri cheklovlari ichida ishlagan yozuvchilar mahsulidir. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslik bu cheklovlarni ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish imkoniyatiga ega.

Tarixiy roman janrida gender aspekti ham alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida ahamiyatlidir. Temuriy malikalarning — xoh Gavharshodbegim, xoh Xonzodabegim — obrazlarida davlat boshqaruvida faol rol o'ynagan ayollarning tasviri o'zbek adabiyotida hali yetarlicha ilmiy umumlashtirishni talab etadi. Jahon adabiyoti nazariyasi nuqtayi nazaridan Mikhalskaya va Anikin ingliz tarixiy romanlarida qahramonlar psixologiyasini ko'rsatishda yozuvchi metodologiyasining hal qiluvchi ahamiyatini qayd etadi. Bu prinsip o'zbek kontekstida ham to'la qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, muhokama qilingan muammolar o'zbek tarixiy romani uchun metodologik qo'llanma sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi: tarixiy shaxs obrazini yaratayotgan yozuvchi badiiy ijod erkinligidan foydalangan holda, tarixiy manbalar bilan muloqotda bo'lishi va obyektiv talqin mezonlarini saqlab qolishi zarur. Faqat shundagina tarixiy roman janri o'zining eng oliy maqsadini — o'tmishni ma'rifat timsoli orqali anglashga ko'maklashishni — amalga oshira oladi.

### **XULOSA**

Ushbu tadqiqot temuriy malikalar, xususan, Gavharshodbegim obrazining o'zbek tarixiy romanlarida qanday talqin etilganini qiyosiy-tahliliy usulda ko'rib chiqdi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- Ayni bir tarixiy shaxs — Gavharshodbegim — o'zbek adabiyotida ikki qarama-qarshi qutbda tasvirlangan: Qodirov uni ma'naviy yetuk, ko'p qirrali siymo sifatida ko'rsatsa, Yoqubov va Shayxzoda uni salbiy, bir tomonlama obraz qilib bergan.
- Tarixiy manbalar — Abdurazzoq Samarqandiy, Klavixov, Ahmedov — bilan qiyoslaganda, Qodirovning talqini tarixiy haqiqatga yaqinroq ekanligi aniqlandi.
- Roman janri nazariyasi nuqtayi nazaridan tarixiy asarda obyektivlik va haqqoniylik asosiy mezon bo'lib, yozuvchi badiiy erkinlikni tarixiy haqiqatni buzmasdan qo'llashi zarur.
- Isaxonovanning yondashuvi tarixiy roman janrida malikalar obrazini yaratishning metodologik jihatdan yanada to'liqroq namunasi sifatida baholandi.

Kelajak tadqiqotlari uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: tarixiy romanlarda gender aspektini ilmiy tahlil qilish; temuriy malikalarning tarixiy portretini arxiv manbalari asosida qayta ko'rib chiqish; shuningdek, o'zbek va jahon tarixiy romanlarida ayollar obrazini qiyosiy o'rganish. Bu esa o'zbek adabiyotshunosligida yangi ilmiy yo'nalish sifatida o'z o'rnini topishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirzaev S. Roman va tarix. – T., 1985.
2. Karimov E. Roman janrining rivojlanish masalalari. – T., 2000.

3. Belinskiy V. G. Poeziyaning jins va turlarga bo‘linishi // Izbrannye sochineniya. – M., 1953.
4. Gegel G. V. F. Estetika. – M., 1971.
5. Stendal. Qizil va qora. – T., 1990.
6. Flober G. Madam Bovari. – T., 1985.
7. Mopassan G. de. Hayot; Azizim. – T., 1988.
8. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – T., 1968.
9. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – T., 1973.
10. Shayxzoda M. Mirzo Ulug‘bek: fojia. – T., 1965.
11. Muhammad Ali. Shohruh Mirzo (Ulug‘ saltanat, 4-kitob). – T., 2005.
12. Ravshanov P. Zavol: qissa. – T., 2003.
13. Isaxonova Sh. Gavharshodbegim: tarixiy roman. – T.: Kamalak-Press, 2014.
14. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa‘dayn va majmai baxrayn. – T.: O‘zbekiston, 2008. – II jild, 3-qism.
15. Ahmedov A. Mirzo Ulug‘bek Tarag‘ay (Buyuk siymolar). – T.: O‘zbekiston, 2011.
16. Klavixov R. G. de. Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406). – T.: O‘zbekiston, 2010.